



Toshkent davlat  
sharqshunoslik universiteti

# XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2026

**MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “RABI’ AL-ABROR” ASARIDA  
YUNON FAYLASUFI JOLINUS QARASHLARINING FALSAFIY  
TAHLILI**

**Oqilov Ahrorjon Bahromjon o‘g‘li**

1-kurs magistrant

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: oqilovahrerjon@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-0932-3474>

**Laziz To‘rayev**

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Ph.D), dots,

Doktorantura bo‘limi boshlig‘i

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: laziz\_torayev@tsuos.uz

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3666-6229>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, Xorazm diyoridan yetishib chiqqan, “al-mufasssal”, “Asos ul-balog‘a”, “Unmuzaj”, “al-faiq fi g‘arib al-hadis” kabi lingvistik va “Atvaq uz-zahab”, “Navobig‘ ul-zalim”, “al-mustaqso fi amsali al-arab” kabi didaktik asarlar muallifi bo‘lgan Mahmud Zamaxshariyning “Rabi’ ul-abror” asarida keltirilgan “ikkinchi Gippokrat”, “tizimli tibbiyot muallifi”, “buyuk ustoz”, “al-Jolinus al-hakim” nomlari bilan ulug‘langan olim Jolinus (Galen)ning tibbiy tavsiyalari va axloqiy yondashuvlari atroflicha talqin qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Mahmud Zamaxshariy, Jolinus, Rabi’ al-abror, Jolinus, mijoz, me‘yor, adab, ota-ona haqqi, nafs tarbiyasi, tibbiyot, hikmat.

**ГАРМОНИЯ МЕДИЦИНСКИХ И ЭТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ ГАЛЕНА  
В ПРОИЗВЕДЕНИИ МАХМУДА АЗ-ЗАМАХШАРИ  
«РАБИ АЛЬ-АБРАР»**

**Ахроржон Окилов**

Магистрант 1-го курса

Специальность: Восточная философия и культура

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: oqilovahrerjon@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-0932-3474>

**Лазиз Тураев**

Доктор философии по историческим наукам (Ph.D), доцент

Начальник отдела докторантуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: laziz\_torayev@tsuos.uz

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3666-6229>

**Аннотация.** В данной статье подробно интерпретируются медицинские рекомендации и этические подходы выдающегося ученого Галена (известного под именами «второй Гиппократ», «автор системной медицины», «великий учитель», «аль-Джалинус аль-Хаким»), представленные в произведении «Раби аль-абрар» Махмуда аз-Замахшари. Махмуд аз-Замахшари, выходец из Хорезмского оазиса, является автором таких фундаментальных лингвистических трудов, как «аль-Муфассал», «Асас аль-балага», «Анмузадж», «аль-Фаик фи гариб аль-хадис», а также дидактических сочинений «Атвак уз-захаб», «Навабиг аль-калим» и «аль-Мустаксо фи амсаль аль-араб».

**Ключевые слова:** Махмуд аз-Замахшари, Гален (Джолинус), Раби аль-абрар, темперамент (мизадж), мера, *adab* (этикет), права родителей, воспитание нафса (эго), медицина, мудрость (хикмат).

## THE HARMONY OF GALEN’S MEDICAL AND ETHICAL VIEWS IN MAHMUD AL-ZAMAKHSHARI’S WORK “RABI’ AL-ABRAR”

**Ahrorjon Oqilov**

*1st-year Master’s Student*

*Specialty: Oriental Philosophy and Culture*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*E-mail: oqilovahrerjon@gmail.com*

*ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-0932-3474>*

**Laziz Torayev**

*Doctor of Philosophy in Historical Sciences (Ph.D),*

*Associate Professor, Head of the Doctoral Department*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*E-mail: laziz\_torayev@tsuos.uz*

*ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3666-6229>*

**Abstract.** This article provides a comprehensive interpretation of the medical recommendations and ethical approaches of the renowned scholar Galen (honored as the “Second Hippocrates”, “Author of Systematic Medicine”, “Great Master” and “al-Jalinus al-Hakim”, as presented in the work “Rabi’ al-Abrar” by Mahmud al-Zamakhshari. A native of the Khwarazm region, al-Zamakhshari is the distinguished author of linguistic masterpieces such as “al-Mufasssal”, “Asas al-Balagha”, “Unmuzaj” and “al-Faiq fi Gharib al-Hadith” as well as didactic works like “Atwaq udh-Dhahab”, “Nawabigh al-Kalim” and “al-Mustaqso fi Amthal al-Arab”.

**Keywords:** Mahmud al-Zamakhshari, Galen (Jalinus), Rabi’ al-Abrar, temperament (mizaj), moderation, *adab* (etiquette), parental rights, discipline of the soul (nafs), medicine, wisdom (hikmah).

## KIRISH

Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy qomusiy bilim sohibi sifatida faoliyat yuritgan kam sonli olimlar qatorida o‘ziga xos alohida o‘ringa ega shaxs deb e’tirof etiladi. U mo‘tazila ta’limoti vakili bo‘lishiga qaramasdan o‘z davrining mutafakkir kishilari qatorida, xususan, ahli sunna ulamolari orasida ham shuhrat qozongan edi. Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosi yaqin yaqingacha asosan ikki yondashuv: “al-Kashshof” kitobi muallifi sifatida – mufasssirlilik va “al-Mufasssal” asarining muallifi sifatida esa tilshunoslik nuqtayi nazaridan yoritildi.

Vaholanki, olimning aynan pand-nasihat ruhida bayon etilgan “*Atvaq uz-zahab fi-l-mavaiz val-xutab*”, “*Navobig‘ ul-kalim*”, “*Maqomat az-Zamaxshariy*”, “*al-Mustaqso fi amsali al-arab*”, “*Rabi‘ ul-abror*” kabi bir qancha asarlari mavjud bo‘lib, bu olim ijodida axloqiy kategoriyalarga munosabatning in’ikosi hisoblanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan asarlar ichida Mahmud Zamaxshariyning “*Rabi‘ ul-abror*” asari o‘zida xilma-xil iqtiboslarni jamlagan kitobdir. “*Munozara*” ilmida yozilgan mazkur asarda tarixiy, diniy, ijtimoiy, siyosiy voqea-hodisalar, geografik ma’lumotlar, rivoyatlar, hikoyatlar, ibratli o‘gitlar, kulgili latifalar va turli she’rlardan iborat ma’lumotlar o‘rin egallaydi” [1.288]. Asarda No‘shiravon, Buzrugmehr, Luqmoni hakim kabi tarixiy shaxslar, Muhammad (s.a.v.) va sahobalar kabi din vakillari hamda Suqrot, Aflotun, Arastu, Buqrot (Gippokrat) kabi antik davr faylasuflari va boshqalar hayotidan ibratli va namuna bo‘ladigan fazilatli hodisalardan misollar keltiriladi. Ushbu ibratlarni keltirar ekan Mahmud Zamaxshariy xulosani har doim o‘quvchining o‘ziga qoldiradi. Uning Sa’diy Sheroziyning “*Guliston*” asari, Jaloliddin Rumiyning “*Ma’naviy masnaviy*” asari, Alisher Navoiyning “*Hayratul-abror*” asarlaridan farqi ham Sharq an’analarida uchraydigan muallif xulosasining uchramasligidir.

“*Rabi‘ al-abror*” asarining boshqa bu turdagi asarlardan ajratib turadigan asosiy jihatlardan biri asar izohlarsiz, asosan iqtiboslar jamlanmasi sifatida taqdim etilganidir” [2;354]. Bu xususiyat asarning qiymatini yanada oshiradi va ratsional tafakkurni mudom uyg‘oqlikda ushlab turadi. O‘quvchi asarda keltirilgan iqtiboslarni o‘zi talqin va tahlil qilib uni amaliyotga tatbiq etishda imitatsion emas, balki autentiklikni namoyon qiladi. Yana shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, asardagi iqtiboslar sodda, aniq va lo‘nda bayon qilingan bo‘lib, bu asar uchun ham matn, ham tahlil va talqin, ham xulosa vazifasini bajaradi. Asarning qadrini oshiradigan xususiyatlardan yana biri – Sharqona bag‘rikenglikdir. Bunga asardagi iqtiboslarning mualliflari turli xalq, turfa din va xilma-xil davr vakili ekanligi yaqqol misol bo‘la oladi. Asar boblarida ham musulmon ham musulmon bo‘lmagan donishmandning, ham teist ham panteist mutafakkirlarning hikmatli so‘zlarini uchratish mumkin. “*Rabi‘ ul-abror*”da bir necha o‘rinlarda tilga olingan maktab

vakillari bu antik davr yunon faylasuflaridir. Ularning ilm-fan, ayniqsa, etik tarbiyadagi tavsiyalari Mahmud Zamaxshariy nazdida ham yuqori baholangan. Xususan, asarda mashhur tabib va donishmand G‘arbda Galen, Sharqda esa Jolinus nomi bilan tanilgan yunon mutafakkirining hikmatlaridan misollar keltiriladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ushbu tadqiqot nazariy, tahliliy va germeneytik metodlar asosida olib borildi. Nazariy metod orqali Abul Qosim Mahmud az-Zamaxshariyning “Rabi’ ul-abror” asarining tub mazmunini tashkil qilgan axlqoiy hamda falsafiy asoslar o‘rganildi va talqin qilindi. Tahliliy yondashuv esa asarda keltirilgan Jolinusga nisbat beriladigan iqtiboslar va ularning ma’no va mazmun xususiyatlarini, ideologik sferalarini, etik tushunchalar zanjirini va ularning o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatuvchi vosita vazifasini bajaradi.

Germeneytik metod orqali esa asardagi iqtiboslar antikvarizm va prezentizm prizmasidan talqin qilindi. Shuningdek, asarning tarixiy qiymati va zamonaviy ahamiyati izohlanib, undagi simvol va yashirin ishora va qochirimlar tahlil qilindi.

### **NATIJALAR**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Mahmud Zamaxshariy asarning uslubini tanlar ekan uni umumbashariy qadriyatlar ustiga quradi. Undagi yondashuvlarning xilma-xilligi shu bilan bir qatorda turfa makon va zamonda yashagan madaniyat vakillarining talqinlaridagi yakdillikni ifodalab beradi.

Irratsional tushunchalar doirasi hamda qamrovining kengligi sivilizatsiyalar tutashuvi va ta’sirlashuvida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu rakurs asarni boshqa shu kabi asarlar ichida unikalligini oshiradi.

### **MUHOKAMA**

Dunyo ilm-fanida Renessans sifatida baholangan IX-XII asrlar o‘zining din bilan hamohang bo‘lganligi bilan ham xarakterlanadi. Bu davrda yaratilgan fan yutuqlarining aksari aynan shu o‘ziga xoslik bilan bog‘liq bo‘ldi. Masalan, namoz vaqtini aniqlash, quyosh chiqishi va botishini belgilash uchun usturlub takomillashtirildi, Ramazon oyi boshlanishini aniqlash maqsadida rasadxonalar rivojlandi, meros masalasini oson hal qilish uchun algebra va algoritmlar yaratildi, Haj ziyoratini amalga oshirish maqsadida xaritalarning aniqroq ko‘rinishlari yaratildi, shuningdek, dengiz yo‘llari xaritalari ishlab chiqildi. Bu holatlarning aksari dinni majburllovchi emas, aksincha, tortuvchi lokomotiv vazifasiga qo‘ydi. O‘ziga xoslik, ayniqsa, siyosiy, ijtimoiy va maishiy hayotda yanada mukammalroq ko‘rinish berdi. Din inson hayotining tug‘ilishdan tortib o‘limgacha bo‘lgan

bosqichlarini to’la qamrab olgan tizim sifatida ko’rildi. Axloq normalari ham shular jumlasidan bo’lib amalda to’liq diniy kodekslar orqali baholandi. Din ta’siri doirasida bir qancha axloqiy asarlar yaratildi va ular asosan shariat qolipiga moslandi. Shunga qaramasdan, bir qancha mualliflar o’z asarlarida uyg’un sivilizatsiyalarning muhim qismlarini muvofiqlashtirdilar. Shu asarlardan biri “Rabi’ ul-abror” asaridir. Mahmud Zamaxshariy bir o’rinda Jolinusdan mevalarning foydasi va ularning inson ta’nasiga ta’siri haqidagi iqtibosni keltirib o’tar ekan, uning bugunga kun tabobati bilan asoslanishini ko’ramiz.

“Rabi’ ul-abror” asarining الشجر والنبات والفواكه والرياحين والبساتين والرياض وذكر الجنة  
“*Daraxtlar, o’simliklar, mevalar, rayhonlar (xushbo’y gullar), bo’shonlar, bog’lar hamda Jannatning zikri haqida*”gi birinchi juz, sakkizinchi bobida quyidagi iqtibosni keltiradi:

جود الأشياء لتركيب رداءة المزاج الحار، الكائن في الرأس مع غثيان النفس، وقلة الاستمراء بعد  
الطعام، التفاح [3;214].

## XULOSA

Abul Qosim Mahmud az-Zamaxshariyning “Rabi’ ul-abror” asarida Jolinusga nisbat beriladigan iqtiboslar tahlili mavzusidagi ushbu maqola quyidagi asosiy xulosalarni ilgari suradi:

Zamaxshariy o’rta asr islom olamining yirik qomusiy olimi sifatida nafaqat teologik va lingvistik, balki axloqiy-falsafiy merosni ham o’ziga xos tarzda boyitgan. Uning “Rabi’ ul-abror” asari turli xalq, din va davrlar donishmandlarining hikmatli so’zlarini jamlagan noyob manba bo’lib, Sharqona bag’rikenglikning yorqin namunasidir.

IX–XII asrlar islom Renessansi davrida ilm-fan va din uyg’unlik kasb etgan bo’lib, axloqiy qoidalar ham diniy ahkomlar orqali baholangan. Biroq Zamaxshariy bu andazadan chiqib, antik yunon faylasuflarining – xususan, Jolinus (Galen)ning — hikmatlarini asarga kiritish orqali sivilizatsiyalararo dialog o’rnatgan. Jolinus tavsiyalarining bugungi tibbiyot bilan hamohang ekanligi esa asarning ilmiy qiymatini yanada oshiradi.

Shunday qilib, “Rabi’ ul-abror” yagona madaniy va diniy doirada emas, balki universal insoniy qadriyatlar mezonida yaratilgan asar sifatida o’rta asr adabiyoti va falsafasida munosib o’rin egallaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тўраев, Л. А. Ў., & Низомова, Н. Қ. (2025). Маҳмуд Замахшарий илмий меросида “Рабийъ ал-аброр” асарининг ўрни. International scientific journal of Biruni, 4(1), 286-292.

2. Oqilov, A. B. O., & To‘rayev, L. (2025). “Rabi’ al-abror” asarida yunon faylasuflarining axloqiy qarashlari. XXI Asr: Fan va ta’lim masalalari (XXI век: Вопросы науки и образования), 3, 260-270.

3. الزمخشري، جار الله. ربيع الأبرار ونصوص الأخيار. الجزء الأول. بيروت: مؤسسة الأعلمي، الطبعة الأولى ١٤١٢ هـ / ٥٨٣ هـ.

4. Davis M.A., Beidelschies M., Landon B.E. Association Between Apple Consumption and Physician Visits: Appealing the Conventional Wisdom that an Apple a Day Keeps the Doctor Away // JAMA Internal Medicine, №175(5). 2015. – P. 777-783.

5. الزمخشري، جار الله. ربيع الأبرار ونصوص الأخيار. الجزء الرابع. بيروت: مؤسسة الأعلمي، الطبعة الأولى ١٤١٢ هـ / ٥٨٣ هـ.

6. Sa’diy Sheroziy. Guliston / Tarj. G‘afur G‘ulom; Sh. Shomuhamedov (nazm) va Rustam Komilov (nasr). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. – B. 184.

7. Mukoshafatul kulub: qalblar kashfiyoti / Abu Homid G‘azzoliy; mas’- ul muharrir: J. Shodiyev; tarjimon va nashrga tayyorlovchilar: M. A’zam, I. Nurullox - Tuzatilgan qayta nashr. - Toshkent: “Book Media Shop” MCHJ qoshidagi “Munir” nashriyoti, 2025. - 480 b.

8. الزمخشري، جار الله. ربيع الأبرار ونصوص الأخيار. الجزء الخامس. بيروت: مؤسسة الأعلمي، الطبعة الأولى ١٤١٢ هـ / ٥٨٣ هـ.

9. Юлдашев Ф. Рустамхон. – Т.: Издательство УзФАН, 1942. – 123 с.

10. Afshin A., Sur P.J., Fay K.A., et al. Health effects of dietary risks in 195 countries, 1990–2017: a systematic analysis for the Global Burden of Disease Study 2017 // The Lancet, №393(10184). 2019. – P. 1958-1972.